O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA RESURLARIDAN FOYDALANISHNI MODELLASHTIRISH	880
<i>Qo'ziyoyev Behzod Hamidovich</i>	
BARQAROR SANOAT VA ESG INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR	884
<i>Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li</i>	
OT TRADITIONNOGO POLIVA K TOCHNOMU OROSHENIU: SRABNITEL'NYI ANALIZ EFFEKTIVNOSTI ISPOL'ZOVANIYA VODY V KLOPKOVODSTVE BUHARSKOY OBLASTI	890
<i>Rahimov Olim Xamitovich, Gulchexra Salimovna Narzullaeva</i>	
DIGITAL TECHNOLOGIES AS A KEY DRIVER OF SOCIO-ECONOMIC PROGRESS: A QUANTITATIVE ANALYSIS OF IMPACT TRANSMISSION MECHANISMS	898
<i>Bozorova Irina Jumanazarovna</i>	
RAQOBQTBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA MEHMONXONA INNOVATSIYALARINING STRATEGIK AHAMIYATI	904
<i>Usmanova Gulida Valiyevna</i>	
KO'CHMAS MULK QIYMATINI OMMAVIY BAHOLASH UCHUN KOB-DUGLAS GIBRID MODELINI QO'LLASH	910
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i>	
SANITARNO-ZASHITNAYA ZONA KAK INSTRUMENT OHRANI OKRUZHAJOUSHAY SREDDY PRI REALIZACII KRUPNOMASHTABNYYH ENERGETICHESKYYH PROEKTOV (NA PRIMERE SHERABADSKOY SOLNECHNOY FOTOELEKTRICHESKOY STANЦИИ V RESPUBLIKE UZBEKISTAN)	919
<i>Omandavlatov Sirojiddin Sodikovich</i>	
ZAHARLI CHIQUINDILARNING ATROF-MUHIT VA INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH	924
<i>Ruziyeva Iroda Davutovna, Mavlonova Shaxnoza Raxmatovna</i>	



ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ СИСТЕМЫ НА ОСНОВЕ VANET ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ ДОРОЖНОГО ДВИЖЕНИЯ.....	930
Лазарев Амир Пишембаевич, Шахобиддинов Алишер Шопатхиддинович	
STRENGTHENING THE FINANCIAL RESOURCE BASE OF COMMERCIAL BANKS IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION.....	938
Dilnoza Xaitboyeva	
SHAHAR INFRATUZILMASIDA NOGIRONLIGI BOR SHAXSLAR UCHUN TO'SIQSIZ MUHITNI TASHKIL ETISHDA XALQARO YONDASHUVLAR	941
Karimova Laziza Jaxongir qizi	
BANK RISKLARINI BOSHQARISHDA RISK-APPETIT TUSHUNCHASI VA UNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	946
O'ktamova Nozima Narzulla qizi, Mirzaraximova Nurhayot Bahrom qizi	
O'ZBEKISTONDA MILLIY TAOMLARNING TURISTLAR SAYOHAT MOTIVATSIYASIGA TA'SIRINI BAHOLASH	950
Turayev Ziyadulla Norsoatovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM TURLARINI TRANSFORMATSIYALASH VA DIVERSIFIKATSIYALASH CHEGARALARINI TIZIMLI TAHLIL ASOSIDA ANIQLASH USLUBIYOTLARI	956
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI HISOBLASHDA KUZATUV QAMROVI, MA'LUMOTLAR MANBALARI VA VAZNLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	964
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY NARXLARI INDEKSINI HISOBLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING INTEGRALLASHGAN MODEL I	969
Tog'ayeva Dildora Akramovna	
AUDIT ISHI SIFATINI BAHOLASHDA XALQARO STANDARTLARDAN FOYDALANISH	976
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



AUDIT ISHI SIFATINI BAHOLASHDA XALQARO STANDARTLARDAN FOYDALANISH

Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Audit" kafedrası v.b. dotsenti

Email: qoshmatovotaxon155@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada auditni amalga oshirish jarayonida auditor ishi sifatini ta'minlash va nazorat qilishning nazariy hamda amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilinadi. Xususan, audit sifati ko'rsatkichlari, uni baholash kriteriyalari, nazorat shakllari hamda auditorlik tekshiruvlari doirasida qo'llaniladigan amallarning uslubiy asoslari yoritiladi. Shuningdek, auditorning mustaqilligi, halolligi va professional mas'uliyati audit sifatini belgilovchi asosiy omillar sifatida ko'rib chiqilib, auditning xalqaro standartlari asosida sifat nazoratini takomillashtirish yo'nalishlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: audit ishi sifati, mustaqillik, auditorlik tekshiruvi, halollik, ichki nazorat, auditning xalqaro standartlari, audit amallari, auditorlik xulosasi.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the theoretical and practical aspects of ensuring and controlling audit quality during the audit process. It examines audit quality indicators, evaluation criteria, forms of control, and methodological approaches to performing audit procedures. Particular attention is given to auditor independence, integrity, and professional responsibility as key determinants of audit quality. The study also substantiates directions for improving quality control systems based on International Standards on Auditing.

Keywords: audit quality, independence, audit engagement, integrity, internal control, International Standards on Auditing, audit procedures, audit opinion.

Аннотация. В данной статье проводится углублённый анализ теоретических и практических аспектов обеспечения и контроля качества аудиторской деятельности в процессе проведения аудита. Рассматриваются показатели качества аудита, критерии его оценки, формы контроля, а также методические основы выполнения аудиторских процедур. Особое внимание уделяется независимости аудитора, его добросовестности и профессиональной ответственности как ключевым факторам качества аудита. Обосновываются направления совершенствования системы контроля качества на основе международных стандартов аудита.

Ключевые слова: качество аудита, независимость, аудиторская проверка, добросовестность, внутренний контроль, международные стандарты аудита, аудиторские процедуры, аудиторское заключение.

KIRISH

Bugungi kunda auditorlik faoliyati dunyoning ko'pgina mamlakatlarida yuqori saviyaga ko'tarilgan. Auditorlik faoliyatini rivojlantirish uchun bir qancha qonunlar va standartlar ishlab chiqilgan. Auditor ishi sifatini nazorat qilish tekshiruvning birinchi bosqichidir. Auditorlik faoliyatining muhim tomonlaridan yana biri shundaki, u yillik buxgalteriya hisobotining haqqoniyligini tasdiqlab, o'z xulosasi bilan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga mos sifat "belgisi"ni qo'yadi. Shu bilan birga, foydalanuvchilarga investitsion siyosatni aniqlash va kelajakda dividendlar olish ehtimolini baholash imkonini beruvchi tadbirkorlik ekspertizasi amalga oshiriladi. Ayniqsa, auditorlar mijoz faoliyati rivojlanishini qisqa va uzoq muddatli prognozlash hisob-kitoblarini malakali baholashning o'rnini kamaytirmasliklari lozim. Auditorlik tashkilotlari, shu jumladan konsalting firmalari tarkibiga kiruvchi tashkilotlar ilmiy-texnika rivojlanishi va boshqaruv darajasini oshirishni joriy etishga moslashgan. Shuning uchun auditorlik faoliyatining sifati muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son¹ qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi"ning

1 <https://lex.uz/ru/docs/-3914502>



IV bandida nazoratning zamonaviy shakllarini joriy etish va auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni oshirishda "auditorlik tashkilotlari faoliyati sifati tashqi nazoratining zamonaviy, samarali tizimini yaratish" vazifalari belgilangan. Faoliyat jamiyat tomonidan katta e'tibor talab etadigan, davlat tomonidan belgilanadigan tashkilotlar, jamoat ahamiyatiga molik subyektlar, ijtimoiy ahamiyatga ega tashkilotlar, jamoat tashkilotlari va jamoat kompaniyalarini qamrab oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Audit ishi sifatini baholash masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng qamrovda o'rganilgan bo'lib, unda ayniqsa International Auditing and Assurance Standards Board tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro audit standartlari muhim metodologik asos sifatida e'tirof etiladi. IAASB tomonidan ishlab chiqilgan sifat nazorati standartlari, xususan ISQC 1 hamda keyinchalik joriy etilgan ISQM 1 va ISQM 2 standartlari auditorlik tashkilotlarida sifatni boshqarish tizimini kompleks yondashuv asosida tashkil etishni nazarda tutadi.

Audit sifati tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. DeAngelo 1981-yilda audit sifatini auditorning moliyaviy hisobotdagi xatoliklarni aniqlash va ularni oshkor qilish ehtimoli sifatida ta'riflagan bo'lib, bu yondashuv audit sifatini baholashda fundamental nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv keyingi tadqiqotlar uchun metodologik poydevor yaratgan.

Audit sifatini oshirish omillari va determinantlari Francis tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, u 2004-yilda audit sifatini ko'p darajali tizim sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, audit sifati nafaqat auditorning individual malakasi, balki audit firmasi darajasi, milliy tartibga solish tizimi va xalqaro standartlar bilan ham chambarchas bog'liq. Bu esa audit sifatini baholashda kompleks va tizimli yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Audit sifati va auditor mustaqilligi o'rtasidagi bog'liqlik masalasi Watts va Zimmerman tomonidan ishlab chiqilgan nazariy modellarda asoslab berilgan. Ular audit sifatini oshirishda auditorning mustaqilligi, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va institutsional nazorat mexanizmlarining ahamiyatini ta'kidlaydi.

So'nggi yillarda audit sifatini baholashda empirik yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. DeFond va Zhang tomonidan 2014-yilda amalga oshirilgan tadqiqotda audit sifati indikatorlari sifatida audit hisobotlari, auditorlik xulosalari va moliyaviy hisobotlarning ishonchiligi ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Ular audit sifatini baholashda xalqaro standartlarga rioya qilish darajasi muhim omil ekanligini ilmiy asoslab beradi.

Audit sifati nazoratini takomillashtirish masalasi Carson, Fargher, Geiger, Lennox, Raghunandan va Willekens tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham muhim o'rin egallaydi. Ular auditorlik xulosalarining ishonchiligi, ayniqsa "going concern" noaniqliklari bo'yicha auditorlarning qaror qabul qilish jarayonini tahlil qilib, audit sifatini oshirishda professional mulohaza va xalqaro standartlarga qat'iy rioya qilish zarurligini asoslaydi.

Shuningdek, moliyaviy barqarorlikni baholash modellari orqali audit sifatiga bilvosita ta'sir etuvchi omillar Altman tomonidan ishlab chiqilgan bankrotlikni prognozlash modeli orqali o'rganilgan. Uning 1968-yildagi tadqiqoti moliyaviy ko'rsatkichlar asosida risklarni aniqlash imkonini berib, auditorlik tekshiruvlarida sifatli xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, audit ishi sifatini baholashda xalqaro standartlardan foydalanish nafaqat metodologik asos, balki auditning ishonchiligi va shaffofligini ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi. Xalqaro audit standartlariga muvofiqlik darajasi auditorlik faoliyatining sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda asosiy mezonlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar xalqaro audit standartlari, auditorlik tashkilotlari hisobotlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy maqolalardan yig'ildi. Empirik ma'lumotlar auditorlik amaliyoti bo'yicha ochiq statistik manbalar orqali shakllantirildi. Tahlil jarayonida taqqoslash, tizimli tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanilib, audit sifati ko'rsatkichlari va standartlarga muvofiqlik darajasi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tergov-tekshirish va auditorlik tashkilotlari harakatlarida tekshirish protseduralari o'tkaziladi. AQSHda bir qator moliyaviy inqirozlar va korporativ janjallardan so'ng 2002-yilda Sarbanes-Oksley qonuni qabul qilindi. U auditorlik kasbida o'zini o'zi tartibga solishdan mustaqil nazoratga o'tishning global tendensiyasini shakllantirdi va davlat kompaniyalarida Audit va buxgalteriya nazorati kengashi tuzildi. Kengashning maqsadi investorlar va jamoatchilik manfaatlarini himoya qilish uchun ochiq aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tekshirishdan iborat.

Yevropa Parlamenti va Kengashining 2014-yil 16-apreldagi 537/2014-sonli "Jamoat manfaatlarining subyektlarini majburiy tekshirishga qo'yiladigan maxsus talablar to'g'risida"gi nizomi ham auditorlik faoliyatining jamoat oldidagi muhim rolini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, keng jamoatchilik auditor va auditorlik tashkilotining ish sifatiga asoslanib xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.



Auditorlik faoliyati sifatini nazorat qilish tizimining tamoyillari 55 ta mamlakatni, shu jumladan MDH davlatlaridan Rossiya Federatsiyasini birlashtirgan Xalqaro mustaqil auditorlarni tartibga soluvchilar forumi (IFIAR) tomonidan ham e'lon qilingan. IFIARning asosiy prinsiplari butun dunyo bo'ylab auditorlik faoliyati ustidan samarali mustaqil nazoratni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, uning 11 asosiy tamoyili auditni boshqarish, sifat nazorati va audit tizimining samaradorligi uchun asos yaratadi.

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi ko'p yillik mustaqil nazorat tajribasiga ega davlat hisoblanadi. Hozirgi vaqtda auditorlik faoliyati sohasida mustaqil nazoratni ta'minlaydigan organ — FRC faoliyatida o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Auditor ishi sifatini umumiy nazorat qilish auditorlarning ma'lum shaxsiy xususiyatlariga, auditorlik guruhi a'zolari o'rtasida ishlarning asosli taqsimlanishiga, sifat standartlariga rioya qilinishiga, audit tashkilotlaridagi ichki nazorat tizimining samaradorligiga asoslanadi. Auditor ishi sifatini nazorat qilish dastlabki, joriy va keyingi nazorat bosqichlari orqali ta'minlanadi.

Amalda dastlabki nazorat auditorlar va auditorlik tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish va litsenziyalash bosqichida amalga oshiriladi. Joriy nazorat alohida auditorlik tekshiruvlarini hamda auditning umumiy jarayonini nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Keyingi nazorat esa asosan tashqi nazorat mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Auditor ishi sifatini nazorat qilishni tashkil etish yo'nalishlari ishi sifatini nazorat kriteriyalari, nazorat yo'nalishlari va nazorat shakllarini o'z ichiga oladi.

Auditor ishi sifatini nazoratining asosiy kriteriyalariga O'zbekiston Respublikasining 25.02.2021 yildagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-677-son² Qonuni me'yori, O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tashkil etish shartlari va litsenziyalash talablari, professional axloq qoidalari, xalqaro audit standartlari talablari kiradi.

Auditor ishi sifatini nazorat yo'nalishlariga alohida auditorlik tekshiruvlarini nazorat qilish va umumiy sifat nazorati amallari kiradi.

Alohida auditorlik tekshiruvlarini nazorat qilish — bu auditorga qonun hujjatlarida belgilangan mustaqillik va erkinlik vakolatlarini berilishi, auditorlar ishining joriy nazoratini kuzatish, auditor ishining standartlarga muvofiq bajarilishini tekshirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Umumiy sifat nazorati: mustaqillik, xizmatchilarga topshiriqlar berish, maslahatlar, kuzatuv, ishga yollash, kasbiy darajani oshirish, xizmatda ko'tarilish, mijozlar maqbuli va ular bilan munosabatlarning davomiyligi, qoida va jarayonlarni nazorat qilish kabi unsurlardan iborat.

Auditor ishi sifatini nazorat qilish uch shaklda tashkil etiladi.

Birinchisi — asosiy auditorning o'z assistentlari ustidan nazorati:

- Asosiy auditor audit o'tkazilayotgan jarayonda ishlayotgan assistentlarini doimiy nazorat qilishi va ishga yo'naltirib turishi kerak.

- Assistent asosiy auditoridan professional darajasi bilan farq qiluvchi shaxs.
- Assistentdan farqli o'laroq, asosiy auditor o'tkazilgan audit uchun to'liq javobgarlikni o'z bo'yniga oladi.
- Assistentlarga vazifalar berilganda, ular o'zlarining majburiyatlari va amallarini, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektlarda auditorlik tekshiruvda yuzaga keladigan muammolar, audit amallarini o'tkazish ko'lamini va mohiyatiga ta'sir ko'rsatadigan jihatlarni bo'yicha tegishli tarzda ko'rsatmalar berilishi kerak.

Ikkinchisi — auditor ishi sifati ustidan auditorlik tashkilotining nazorati. Unda auditorlik tashkilotining rahbari doimiy va joriy davrda quyidagi masalalar yuzasidan nazorat olib boradi:

- Mijoz uchun o'tkaziladigan auditorlik tekshiruvining auditorlik rejasini va dasturining asoslanganligini tekshirish va mulohaza yuritish;

- Auditorlik prinsiplari va tashkiliy-axloqiy talablariga qat'iy rioya qilinishini tekshirish;
- Asosiy auditor tomonidan auditorlik xulosasi berib bo'linganidan keyin auditorlik tashkilotining boshqa auditori tomonidan hisobotlarning ishonchligini mijoz uchun bepul bo'lgan takroriy qayta tekshiruvlarni o'tkazish.

Uchinchisi — auditor ishi sifati ustidan tashqi nazorat tashkil etilishi. Tashqi nazorat davlat organlari tomonidan o'tkazilib, bu nazorat amaldagi qonun va me'yoriy hujjatlar asosida davriy va majburiylik tamoyiliga muvofiq amalga oshiriladi [6].

Auditor ishi sifatining tashqi nazorati obyekti bo'lib quyidagilar hisoblanadi: audit tashkilotining ichki standartlari, audit tashkiloti ish sifatining ichki nazorat tizimi, alohida auditorlik tekshiruvlari. Ushbu auditor ishi sifatini nazorati obyektlariga qarab, tashqi nazorat masalalarini uch guruhga ajratish mumkin.

Birinchidan, auditorlik tashkilotining ichki standartlarining mavjudligi va ularning amaldagi XAS bilan mosligini tekshirish o'tkaziladi. Ushbu guruh nazorat masalalari doirasiga quyidagilar kiradi:

- Audit tashkilotida ishlab chiqilgan va qabul qilingan ichki standartlarning mavjudligini tekshirish;
- Ichki audit tashkiloti standartlarining ularni ishlab chiqish va nazorati uchun qo'yilgan talablarga mosligini tekshirish;

2 <https://lex.uz/ru/docs/-3914502>



- Ichki standartlarning ularning tarkibi va mazmuniga qo'yilgan talablarga mosligini tekshirish;
- Ichki standartlarning ularni tayyorlash tartibiga bo'lgan talablarga mosligini tekshirish;
- Ichki standart talablarini bajarishga qaratilgan tashkilotning ichki nazoratini tashkil etishga qo'yilgan talablarning mosligini tekshirish;
- Qabul qilingan va ishlab chiqilgan ichki standartlarning amaldagi nizom va me'yoriy hujjatlar talablariga mosligini tekshirish.

Ikkinchidan, audit tashkilotida ish sifatining ichki nazoratini tashkil etilishi va ularning samarali amal qilishini tekshirish masalalari. Ushbu guruh nazorat masalalari doirasida quyidagilar amalga oshiriladi: audit tashkiloti ish sifati ichki nazorat tizimining tashkil etilishini tekshirish hamda audit tashkiloti ish sifati ichki nazorat tizimining samarali faoliyatini tekshirish.

Uchinchidan, alohida auditorlik tekshiruvlari sifatini tekshirish. Ushbu guruh nazorat masalalari doirasida quyidagi vositalar amalga oshiriladi: o'tkazilgan auditorlik tekshiruvlarining audit standartlari talablariga mosligini tekshirish; audit jarayonini hujjatlashtirishga qo'yilgan talablarning bajarilishini tekshirish; auditorlik tekshiruv davrida ish sifatining ichki nazorati amallarining realizatsiyasini tekshirish.

Auditorlik tashkilotining ish sifati nazorati tizimi quyidagilardan iborat bo'lishi lozim.

MDHga a'zo davlatlarda majburiy auditni amalga oshiruvchi auditorlar va auditorlik tashkilotlarini nazorat qilishning huquqiy asoslari Auditning xalqaro standartlari (Audit quality concept) [8.5] asosida shakllantiriladi. Auditorlik faoliyatini tartibga solish auditorlik tashkilotlari va alohida auditorlarga audit o'tkazish, standartlarni o'rnatish, audit sifatini nazorat qilish hamda standartlarga nomuvofiqlik va noto'g'ri audit o'tkazilgan taqdirda intizomiy choralarni qo'llash uchun litsenziya berishni o'z ichiga oladi. Mamlakat miqyosida ushbu funksiyalar odatda mustaqil boshqaruv organlari yoki professional buxgalteriya tashkilotlari yoki ikkalasi tomonidan bajariladi (1-rasm).



1-rasm. Xalqaro audit standartiga muvofiq auditorlik tashkilotining ish sifati nazorati tizimi³

Shunday qilib, amaldagi me'yoriy hujjatlarda auditor ishi sifati nazoratini tashkil etishning turli shakllari va ularning qirralari bayon etiladi.

O'zbekiston Auditorlar palatasi ekspertlari auditorlik tashkilotlarida tashqi sifati nazoratini va o'tkazilayotgan auditning ichki sifati nazorati tizimini o'rgandilar. Auditorlar tomonidan auditorlik faoliyatiga oid qonunchilik aktlari, auditorlik faoliyati milliy standartlari va O'zbekiston auditorining professional etika kodeksi talablariga rioya etishlarini tekshirish ichki sifati nazorati tizimini tekshirishdagi birinchi darajali vazifalardan biri hisoblanadi, bunda auditorlik tashkilotida ichki sifati nazorati tizimiga katta e'tibor qaratiladi. Ishlab chiqilgan va auditorlik tashkilotlarida samarali foydalanilayotgan ichki sifati nazorati tizimi o'tkazilayotgan auditorlik tekshiruvlari sifatini ta'minlashda asosiy omil bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvlari va auditorlik xizmatlarini ko'rsatadi, shartnoma asosida ish olib boradi. Shunday qilib, auditorlik tashkilotlarining ichki va tashqi ish sifatini nazorat qilish va baholashda qo'llaniladigan nazorat amallarini o'rganish va tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Qonunda auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish tartibi bayon qilingan. Unda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining oldini olishga yo'naltirilgan va audit mustaqilligini ta'minlovchi auditorlik tekshiruvini o'tkazishdagi cheklovlar sanab o'tilgan. Xususan, ketma-ket yetti yildan ko'proq ayni bir xo'jalik yurituvchi subyektning auditorlik tekshiruvini o'tkazishga haqli emasligi bo'yicha taklif berilgan.

2. Auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish algoritmi ishlab chiqilgan hamda amaliyotga qo'llash bo'yicha taklif berilgan. Mazkur algoritmnini qo'llash natijasida auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish jarayonida yuzaga keladigan nomuvofiqliklarning oldini olishga xizmat qilgan.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish jarayonida ichki sifati nazoratining maqsadi hamda bajariladigan ishlar ketma-ketligi ishlab chiqilgan. Mazkur ishchi hujjatning qo'llanilishi natijasida auditorlik tekshiruv jarayonida bosh auditorning o'z qo'l ostidagi auditorlar va yordamchi auditorlar ishini nazorat qilishda bajariladigan nazorat tadbirlarini amalga oshirish yengillashtiriladi hamda ushbu nazorat tadbirlarining samarali bajarilishiga imkoniyat yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son qarori // <https://lex.uz/ru/docs/-3914502>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son qarori // <https://lex.uz/ru/docs/-3914502>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-4746047>
4. O'zbekiston Respublikasining 25.02.2021 yildagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-677-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/-5307886>
5. Сифат назорати, аудит, кўриб чиқиш, бошқа ишонч билдириш ва турдош хизматларнинг халқаро стандартлари. Таржима УБАМА 2014.
6. Кеворкова Ж.А. Международные стандарты аудита. Под редакцией, -М.: Юрайт. 2016. - 458 с.
7. DeAngelo, L. Audit quality, Journal of Accounting and Economics, 1981.
8. Francis, J. What do we know about audit quality? The British Accounting Review, 2004.
9. Watts, R., Zimmerman, J. Positive Accounting Theory, Prentice Hall, 1986.
10. DeFond, M., Zhang, J. A review of archival auditing research, Journal of Accounting and Economics, 2014.
11. Carson, E., Fargher, N., Geiger, M., Lennox, C., Raghunandan, K., Willekens, M. Audit reporting for going-concern uncertainty: A research synthesis, Auditing: A Journal of Practice & Theory, 2013.
12. Altman, E. Financial ratios, discriminant analysis and the prediction of corporate bankruptcy, The Journal of Finance, 1968.
13. https://www.abbreviationfinder.org/ru/acronyms/sox_sarbanes-oxley-act-of-2002.html
14. <http://base.garant.ru/71364274/>
15. <https://www.ifiar.org/>
16. <https://www.frc.org.uk/>
17. https://www.ifac.org/system/files/meetings/files/6086_0.pdf

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100